

## RAUF PARFI IJODIDA MUXAMMAS JANRINING IFODALANISHI

*Xushmanova Sevinch Ibraimovna*

*Termiz davlat Pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi*

*2-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Muxammas janri aruzga oid bo'lib, o'ziga zos vazn va muayyan qofiya tizimiga egadir. O'zbek she'riyatining yangilangan ko'rinishdagi .muxammaslarida an'anaviy qofiya tizimi saqlanib qolganMaqolada Rauf Parfi ijodida muxammas janri namunalari va uning badiiy talqiniga oid fikr-mulohazalat bayon etiladi. Tadqiqot tahlillar bilan yoritiladi.

**Kalit so'zlar.** Mumtoz she'riyat, muxammas janri, aruz, Xofiz Xorazmiy, Rauf Parfi, "Ko'ngil", "Yurak", tazmin muxammas.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mumtoz she'riyatning musammat turkumiga kiruvchi mustaqil janrlaridan biri bo'lgan muxammasning paydo bo'lishi XV asrga to'g'ri keladi. Uning ilk namunasi Hofiz Xorazmiy ijodiga oid. Mustaqil muxammasning har bir bandi besh misradan tarkib topgan she'r shakli bo'lsa, shakl jihatidan unga o'xshash bo'lgan taxmis bir shoir tomonidan boshqa bir shoirning g'azal baytlariga uch misra orttirib beshlik shakliga keltirilgan she'r janridir. Muxammasning bu turi ikki shoir qalamiga oid desak, yanglish bo'lmaydi. Adabiyotshunos olim Yoqubjon Is'hoqovning ta'kidlashicha, "...taxmis usuli har bir shoir uchun mahorat sinovi, ilhomlantiruvchi kuch yoki biror muhim fikrni ro'yobga chiqarish vositasi bo'lishi mumkin". Ko'pincha g'azal, bazida esa qasida va mustazod janrlari asosidan taxmis muxammas yuzaga keladi.

Qa-chon kel-dim/ qa-yon ket-dim,/ yo'-lim-ga te-/mir to'-r et-ding,/ Yu-rak sen-mi,/ fa-lak sen-mi,/ zo-rim-ga bun/ cha zo'-r et-ding./ So-qov de-vor/ u-za yoz-dim/ qo'-lim-ni qon/ li bo'-r et-ding,/ Yu-rak sen-san,/ me-ning so-zim/ ti-lim-ni nay/ ga jo'-r etding,/ Yu-rak sen-san,/ ish-qi-bo-zim/ ko'-zim-ga oy/ ni ber-kit-ding./ :ParadigmasiV - - - / v - - - / v - - - / v - - - / :Afoyilima- fo- iy- lun/ ma- fo- iy- lun/ ma- fo- iy- lun/

Rauf Parfining shoir Usmon Nosirning "Yurak" she'riga muxammas bog'lab yozgan ushbu aruz vaznidagi she'ri hazaji musammani solim bahrinda yozilgan. Ushbu bahr bir asliy ruknning muayyan tartibda takrorlanib kelishidan tarkib topadigan solim bahriga oiddir. Bunda mafoylun ruknining takrorlanishidan hazaj bahri paydo bo'lgan. Ushbu she'r muxammasning ikkinchi tipiga ya'ni taxmis muxammasga oiddir. Muxammasning yutuqlaridan biri uning qofiyalanish tartibida. Shoir qofiya tartibini a-

a-a-a-a, b-b-b-b-b, v-v-v-v-v, d-d-d-d-d tarzida tuzgan. Bu esa muxammasning musqiy ritmini oshirishga xizmat qilgan. Qolaversa, taxmisning hazajda yozilganligining o'ziyoq uni hushohang va o'ynoqi vaznlardan tarkib topganligini ifodalaydi. Band misralaridagi "to'r etding", "zo'r etding", "bo'r etding", "jo'r etding", "berkitding" so'zlari qofiyadosh bo'lib, shu so'zlar yakunidagi "r" undoshi ravyi, "etding" so'zi esa radif hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, she'r ravyi harfsiz to'g'ri bo'lmaydi. Shu jihatdan bu harfni shunday takrorlash kerakki, har bir baytda muayyan bir o'ringa qo'yilsin. Muxammasning yana bir jihatiga e'tibor qaratish lozim, shoir qofiyadosh so'zlarni qo'llashda vaznga tushirishda ham o'z mahoratini namoyish etgan. Xususan, misra qofiyadoshlari "jo'-r et-ding", "to'-r et-ding" so'zlari v--- (qisqa+cho'ziq + cho'ziq + cho'ziq) tarzida ifodalangan.

Muxammas janri yangi davr she'riyatida shoirning o'y va kechinmalarini keng ifodalash, poetik mahoratni namoyon etish, ijodiy-ruhiy bahs vositasi tarzida mashhur. Shoир Rauf Parfi ham mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodidan ta'sirlangan holda an'anaviy usulda yaratgan muxammaslari yangi davr she'riyati uchun o'ziga xos adabiy hodisa sifatida mazmuniy novatorlikka egadir. Shoир muxammaslarida mumtoz adabiyotning tengsiz an'analari davom ettirilgan. Millat, insoniyat shoiri sifatida Cho'lponning "Ko'ngil" she'riga yozgan taxmisi fikrimiz isbotidir. U 1983-yilda yozilgan bo'lib, shoир unda "yo'llaring qaro tunmasmi" deya vatan ozodligi haqidagi havotirlari, "bulutdek bag'ri so'zon" bo'lib chekayotgan iztirob va zahmatlarini aks ettiradi. Ma'lumki, Cho'lpon xalqni uyg'otish va birlashtirishni tarannum etuvchi asarlar sohibidir. Professor Nurboy Jabborov ta'kidlaganlaridek, shoир ko'nglini o'rtaqan cho'ng armonlarini poetik ramz va timsollar tiliga ko'chirib, poetik g'oyani simvollashtiradi. Cho'lpon she'rni hazaji musammani solim vaznida yozgan. Shoир Rauf Parfi ham bu an'anani davom ettirgan holda poetik mazmunni .yorqin ifoda etishning uddasidan chiqqan

,Yuzlashding balolarga, alamlar ichra ko'zlashding

,O'zing kuyding, o'zing yonding, o'zgalar haqqi o'zlashding

,Bu qul bozorinda izg'ib qumrilar kabi bo'zlashding

,Ko'ngil, sen bunchalar nega kishanlar birla do'stlashding

] ?Na faryoding, na doding bor, nechub sen buncha sustlashding<sup>8;97]</sup>

She'rdagi lirik kechinma ko'ngilga qaratilgan. Kishanlar birla do'stlashgan ko'ngilga qarata aytilgan savollar, o'tli nidolar haqoratlardan dili og'rigan Insonga qaratilgan. Kishan bilan ko'ngil timsollari orasida tazodiy bog'lanish bor. Kishan va ko'ngil hech bir zamonda bir-biri bilan do'st bo'la olmasligi ma'lum. O'zi kuyib o'zi yonayotgan qalb sohibi, Rauf Parfi uchun Cho'lponning mana shu misralari aynimuddao edi. Ruhning hurligi, ozodligi uchun kurash alangasi porlab turgan ushbu satrlar sho'ro davriga va bu davr mustamlakachilik kishanlariga qarshi adibning isyonи. Shoир bu o'rinda o'tkir kinoyaviy usulni qo'llagan, bilib bilmaslikka olgan.

O‘zing kuyding, o‘zing yonding, na faryoding, na doding bor, munavvarsan, mukarramsan, risolat tug‘ida shonsan, sen Ka’bamsan – Turkistonsan, xunimsan, sen axir qonsan, bo‘yin egma, kishan kiyma kabi jumlalarda ta’did san’ati orqali shoir fikr ta’kidini kuchaytirgan. Bu orqali taxmis misralarida teran fikr va go‘zal badiiy shakl ?mutanosibligini ta’milagan. Ko‘zimga xoki Turonim, ozodlik gardi inmasmi

?Bu kunlardan umid yo‘qmi? Yo‘llaring qaro tunmasmi

Xazon bo‘lgan bahor senmi, nishon hurlikdan unmasmi? Haqorat dilni ?og‘ritmas, tubanlik mangu tinmasmi

] ?Kishanlar parchalanmasmi, qilichlar endi sinmasmi8;[97]

Har bir misrada tazodiy poetik uslubga asoslanib, “kun-tun”, “xazon-bahor” so‘zlari vositasida taxmisda har bir so‘zga ramziy ma’no yuklaydi. Ikki zabardast shoir, yuragi yurt qayg‘usida yongan ikki ijodkorning maslagida mushtaraklik, ijodiy-ruhiy yaqinlik, falsafiy mushohada uyg‘unligi yaqqol nazarga tashlanadi. She‘rning muallifi bittadek go‘yo. Taxmisbandlarida ikki ijodkor nafaqat lirik qahramonlarining, balki shaxsiyatining yurtni ozodlikka, hurlikka yetishish istagi haqidagi hislari jilvasi, tuyg‘ulari manzarasi, teran fikr va mushohadalari o‘zining falsafiy-psixologik .talqinini topgan

Rauf Parfi ijodi uning barcha vaznlarda she’rlar bitganligi bilan ham ahamiyatlidir. Uning aruz vazni qoidalariga muvofiq muxammaslari fikrimiz dalilidir. Shoir Usmon Nosirning "Yurak" she’riga muxammas bog’lab yozgan aruz vaznidagi she’ri hazaji musammani solim bahrida yozilgan. Ushbu she’r muxammasning ikkinchi tipiga ya’ni taxmis muxammasga oiddir.

Muxammas janri yangi davr she’riyatida shoirning o‘y va kechinmalarini keng ifodalash, poetik mahoratni namoyon etish, ijodiy-ruhiy bahs vositasi tarzida mashhur. Shoir Rauf Parfi ham mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodidan ta’sirlangan holda an'anaviy usulda yaratgan muxammaslari yangi davr she’riyati uchun o‘ziga xos adabiy hodisa sifatida mazmuniy novatorlikka egadir. Shoir muxammaslarida .mumtoz adabiyotning tengsiz an’analari davom ettirilgan

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Quronov D.H. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: "Innovatsiya-ziyo",2020
2. Samarqandiy M. Tazkirat ush-shuaro. -T.: "Mumtoz so'z", 2013
3. Quronov D.H, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T.: "Akademnashr", 2013.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. -T.: "O'qituvchi",1980.
5. To'ychiyev U. O'zbek sovet poeziyasida barmoq sistemasi. -T.: "Fan", 1966.
6. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. -T.: "O'qituvchi", 1996.
7. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent.: 2016
8. Rauf Parfi. Iymon asiri.